

**MASHINA-TRAKTOR STANSIYALARI O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ
XO‘JALIGINI TIKLASHDA AGRAR SIYOSATNING ASOSIY
YO‘NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA (1946–1953-YILLAR)**

Firuzbek Ergashaliyevich TOJIBOYEV

katta o‘qituvchi

Qo‘qon universiteti Andijon filali

Andijon, O‘zbekiston

e-mail: firuzbek19881202@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada 1946–1953-yillar davomida O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini tiklash jarayonida mashina-traktor stansiyalarining (MTS) tutgan o‘rni va ularning agrar siyosatdagi asosiy yo‘nalishlardan biri sifatidagi ahamiyati tahlil qilingan. Unda urushdan keyingi yillarda texnika ta‘minoti, dehqon xo‘jaliklarini mexanizatsiyalash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda kolxoz-sovхоз tizimining barqarorlashuvi masalalari yoritilgan. Arxiv hujjatlari, statistik ma‘lumotlar va davriy matbuot nashrlari materiallari asosida MTSlarning iqtisodiy va ijtimoiy roli ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: MTS, kolxoz, savхоз, agrar siyosat, texnik siyosati, oziq-ovqat xavfsizligi.

**МАШИННО-ТРАКТОРНЫЕ СТАНЦИИ КАК ОДНО ИЗ ОСНОВНЫХ
НАПРАВЛЕНИЙ АГРАРНОЙ ПОЛИТИКИ В ВОССТАНОВЛЕНИИ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ (1946–1953 ГГ.)**

Фирузбек Эргашалиевич ТОЖИБОЕВ

Старший преподаватель

Андижанский филиал Кокандского университета

Андижан, Узбекистан

e-mail: firuzbek19881202@gmail.com

Аннотация

В статье анализируется роль машинно-тракторных станций (МТС) в процессе восстановления сельского хозяйства Узбекской ССР в 1946–1953 годах, а также их значение как одного из основных направлений аграрной политики. В ней освещаются вопросы обеспечения техникой в послевоенные годы, механизации крестьянских хозяйств, повышения производительности труда и стабилизации системы колхозов и совхозов. На основе архивных документов, статистических данных и материалов периодической печати раскрывается экономическая и социальная роль МТС.

Ключевые слова: МТС, колхоз, совхоз, аграрная политика, техническая политика, продовольственная безопасность.

XX asr butun dunyo tarixida juda muhim voqealarga boy bo‘ldi. O‘zbekiston tarixining shu davriga oid manbalarni tahlil qilish davomida ko‘plab ziddiy qarashlarni kuzatish mumkin. Vatanimizning ana shu boy va ziddiyatli

tarixini o'rganish milliy ongning yuksalishi, vatanparvarlik xislarining shakllanishida, millatning jipslashuvi, yosh avlodni o'ziga xos tarixiy an'analarimiz, xalqimiz o'tmishiga hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Zotan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan-avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"[1; 29.].

Ushbu matnda asosiy etibor 1946–1953-yillar oralig'ida MTSlar va ularning faoliyatiga doir yaratilgan rasmiy hujjatlar, ma'ruzalar, partiya qarorlari, matbuot nashrlari va ilmiy manbalarni o'rganishga qaratildi. Shu bilan birga, O'zbekiston agrar siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida MTSlarning faoliyati va o'sha davrdagi holati xalqaro miqyosdagi agrar islohotlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil etildi.

Besh yil davom etgan urushning yakuni dunyo mamlakatlarining misli ko'rilmagan yo'qotishlarni meros qoldirgani xech kimga sir emas. Urushdan keying davr iqtisodiyotni qayta tiklash, ishlab chiqarishni tinch hayotga moslashtirish ishlarini amalga oshirishga ham imkon berdi. Ammo, urushdan keyingi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jihatdan og'ir pallaga to'g'ri keldi. Urush yillarida qishloqlar erkaklarsiz, shaharlar vayronaga aylangan edi. Kun tartibidagi asosiy savollar shular edi: Qayerdan non topish mumkin? Qayerda yashash mumkin? Nima kiyish kerak? Bu savollarni hal etish tirikchilik strategiyasiga aylandi, boshqa barcha narsalar esa ikkinchi darajali bo'lib qoldi. Shunday og'ir vaziyatda sobiq Ittifoq bo'ylab keng miqyosdagi vazifalar belgilab olindi. O'zbekiston SSR ga qishloq xo'jaligini yuksaltirish eng muhim vazifalardan biri edi.

Xukumron partiyaning siyosiy mavqei tufayli diktatorlik kayfiyati hayotning barcha sohalarida, jumladan iqtisodiy tarmoqlarda ham ma'muriy-buyruqvozlik siyosatini olib bordi. Bu jarayonda O'zbekistonga Rossiya, Ukraina,

Belorussiyaning urush davrida vayronaga aylangan halq xo'jaligini tiklashda yordam ko'rsatishi, shundoq ham ayni vaqtda oziq-ovqat, iste'mol mollari bilan ta'minlashdagi uzulishlar, ishlab chiqarishda kadrlar yetishmasligi kabi ijtimoiy muammolar girdobida bo'lgan O'zbekiston aholisi zimmasiga yuklatilishi vaziyatni yanada og'irlashtirdi. Bunday vaziyatdan chiqib ketish maqsadida quyidagi amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Markazning topshirig'i bilan O'zbekiston SSRda agrar siyosatning asosiy bo'g'inlaridan biri – mashina traktor stansiyalari (MTS)ning moddiy-texnika bazasini takomillashtirishga qaratilgan texnik siyosat yuritildi. Xususan, har bir MTS ning bevosita SSSR qishloq xo'jaligi vazirligiga bo'ysunishi, texnikalar, yoqilg'i va ehtiyot qismlar ta'minoti markaziy rejalashtirish asosida amalga oshirilishi, kolxozlar MTS dan foydalanishi uchun davlatga "xizmat haqqi" sifatida hosilning muayyan qismini topshirilishi, bu orqali esa davlat paxta va g'alla rejasini qati'y nazoratga olish imkoniga ega bo'ldi. Shu bilan birga kadrlar siyosati va paxtachilik siyosati kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi. Shunday vaziyatda Markaz tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlar markaziy bo'g'inini MTSlar tashkil qilib, davlat siyosatida texnik taraqqiyot bilan bir qatorda mafkuraviy va iqtisodiy nazorat ham kuchaytirildi.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston SSRda mehnatning insoniy yo'qotishlari 300 ming nafarni tashkil etdi [2;493]. Bu esa urushdan keyin qishloq ho'jaligini qayta tiklash ishlarida ishchi kuchining yetishmovchiligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Respublikada paxtachilik yetakchi tarmoq sifatida davlat agrar siyosatining diqqat markazida bo'ldi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirishda MTS lar faoliyati alohida ahamiyat kasb etdi.

SSSR XKS ning 1946-yil 2-fevraldagi "1946–1953-yillarda O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada yuksaltirish rejasi va tadbirlari to'g'risida" [3; 323.] qabul qilgan qarorlari aynan shu maqsadga qaratilgan edi. Qarorga ko'ra davlatga paxta sotishni ikki barovarga oshirish belgilangan edi. O'zbekiston SSR iqtisodiyoti oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalar 1946–1950-yillarga mo'ljallangan rejada belgilandi. Unga ko'ra, xalq xo'jaligining barcha sohalariga 3

mlrd. 900 mln. so'm kapital mablag' ajratildi. Sanoatni rivojlantirish ishlari respublika iqtisodiyotining yetakchi sohasi paxtachilikni rivojlantirishga qaratildi [4; 117].

1941-yil 1-yanvar holatiga ko'ra jami turdagi barcha 1050 dona traktorlar dala maydonlarida ishlagan bo'lsa, 1945-yilga kelib ularning soni 737 tani tashkil etdi [5;13]. Bu esa qishloqlarda og'ir mehnat kuchlarini qo'l mehnatiga asoslanishiga sabab bo'ldi. O'z o'rnida ishlab chiqarish quvvatining texnika bilan bog'liq qismining 30 foizga kamayganini anglatar edi. Traktorlar va mehanizatorlar tomonidan bajariladigan ishlar hajmi 1,5 baravarga kamaygan. Markaz tomondan berilgan topshiriqlarda bu jihatlar hisobga olinmaganligi tufayli ayni so'z borayotgan davrda qishloq ho'jaligi rivoji ziddiyatli tus olgan edi. Bu ziddiyatning yana bir jihati urush tufayli boy berilgan aqliy va ma'naviy yo'qotishlarda ham o'z aksini topgan edi.

1946-yilga kelib, O'zbekistonga Markaz tomonidan 846 traktor, 1240 ta traktor pluglari, 1047 ta yuk mashinalarini berildi [6;223]. Ko'rilgan tezkor tadbirlar natijasida 1947-yilda paxta rejasi 100,7 foizga bajarildi. Bu faqatgina sovet tarixchilarining og'zidan bol tomib aytganidek, Markazning texnik yordami bilangina emas, eng minimal iste'mol savatchasi bilan ham ter to'kib ishlagan o'zbek dehqonlarining mashaqqatli mehnatlari natijasi bo'ldi.

1940-yildan 1953-yilga qadar MTS larning texnik bazasi ancha tiklangan. Shu yillarda mexanizatorlar soni 51 ming 344 nafardan, 65 ming 322 nafarga yetgan, traktorlar soni 4 ming 504 tadan, 52 ming 415 taga yetgan, kombaynlar soni 935 tadan, 1 ming 280 taga yetgan, avtomashinalar esa 5 ming 386 tadan, 9 ming 877 donagacha oshgan [7; 168].

Paxta terishni mexanizatsiyalashuvida kutilgan natijalarga qisman erishildi. 1950-yilda 58,4 ming tonna, 1951-yilda 87,4 ming, 1952-yilda 36,4 ming, 1953-yilda 83,2 ming tonna paxta mashinalar bilan yig'ilgan.

MTS larning og'ir ahvoliga qaramay Respublika traktorchilari o'z oldiga katta maqsadlar qo'yib, yangi o'zlashtirilgan 245 ming gektar yerlarni ham ekin maydonlariga tortishni, ko'klamga qadar traktorlarni shay holatga keltirib

qo'yishni va'da qilishgan edi. Bu va'dalar orasida hosildorlikni gektaridan 27 sentnerga yetkazish vazifasi ham mavjud bo'lgan [8]. Ammo tayyorgarlik 1947-yilning 1-fevralida ham texnik jihatdan yetarlicha bo'lmadi. Urush tufayli tashib ketilgan traktor va yuk mashinalar o'rnini to'ldirish juda qiyin kechdi. Ayniqsa Andijon, Farg'ona, Namangan, Buxoro, Xorazm viloyati MTS larida traktorlari ko'klamga tayyorlash ishlari 49 va 55 foiz atrofida bajarildi [8]. Shunday vaziyatda ham Respublikada sotsial musobaqa to'xtab qolmay, aksincha traktorchilar va dehqonlar astoydil mehnat qildilar.

1950-yilning o'rtalariga kelib Respublika kolxozlari va sovxozlari, shuningdek MTS larida jami 3,6 mingta paxta terish mashinalari bo'lib, keyingi 3 yil mobaynida ular soni 13 816 ga yetkazildi [9;197]. Lekin bizning fikrimizcha, bu ko'rsatkichlar maqtovga arzimaydi, sababi, dastlabki yillarda paxta terish mashinalarining ish salmog'i past bo'lib, hali ham asosan paxta terimi "Oq oltinni – oltin qo'llar yaratadi" shioriga ko'ra qishloq mehnatkashlari tomonidan terilar edi. Ma'lumolarga ko'ra birgina 1950-yilda jami terib olingan paxtaning bor-yo'g'i 3 foizi mashinalarda terilgan edi [10;30]. Bunday ilmiy-texnikaviy ishlab chiqarish siyosati Markazning O'zbekistonda olib borgan agrar siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Paxta terishga moslashtirilgan mashinalardan tashqari o'tkazilgan tadbirlar qishloq ho'jaligini mehnizatsiyalash islohotlari doirasida xo'jaliklar texnika bilan ta'minlashda muayyan darajada ishlar amalga oshirildi. 1945-yilda savxozlar, kolxozlar va MTS tarkibida 20,3 mingta traktor bo'lgan bo'lsa, 1950-yilning oxiriga kelib ular soni 29,5 mingtaga yetkazildi [11;135]. Biroq juda ko'plab joylarda malakali mexanizatorlar masalasi kun tartibidagi muammoligicha qolgan edi. Mexanizatsiya kadrlari masalasida ayniqsa, Termiz va Kattaqo'rg'on mexanizatsiya maktablari ancha yomon ishladilar [12].

Umuman olganda 1940–1953-yillarda agrotexnikalar ishlab chiqarish avvalgi davrlarga nisbatan jadallashdi. MTS biroz foydali va samarali ishlovchi mashinalar bilan to'ldirildi. Samarali ishlovchi texnikalar xususan, g'o'za bargini to'kuvchi, purkagich va changlagich va zararkunandalarga qarshi kurashuvchi

vositalar ishlab chiqarilishi o'sib bordi. Bu texnikalarning joriy qilinishi keyinchalik aholi orasida turli kasalliklar keltirib chiqaruvchi asosiy omilga aylanib bordi. Texnikalar xizmati asosan paxta yetishtirishga qaratilganligi tufayli, ularni bajarish chog'ida atrof-muhit va tabiat ne'matlariga yetkaziladigan zararni inobatga olishmagan edi.

MTSlar faoliyati tufayli ko'plab yerlar qayta o'zlashtirildi. 1946-yilda O'zbekistonda 150 dan ortiq MTS mavjud bo'lib, ular 4000 dan ziyod traktor va boshqa texnikani kolxozlar ixtiyoriga bergan. "1946–1950-yillarda O'zbekiston MTSlari yordamida 1,2 million gektardan ortiq yer mexanik tarzda haydaldi. Bu avvalgi yillarga nisbatan ikki baravar ko'p edi" [13].

Paxta O'zbekiston iqtisodiyotining tayanch sohasiga aylangan bo'lib, MTSlar yordamida paxta ekin maydonlari kengaytirilib, hosildorlikning oshishiga erishildi. 1950-yilga kelib, paxta hosili 1940-yil darajasidan 25–30 foizga ortdi. "1950-yilda respublikada paxta yetishtirish 1,5 million tonnaga yetdi, bu ko'rsatkichda MTSlar faoliyatining hissasi nihoyatda katta edi" [14;314].

1951–1953-yillarda O'zbekiston dalalarida ishlovchi traktorlar soni 8000 dan ortdi, kombaynlar va paxta terish mashinalari ham keng joriy qilindi. Shu orqali qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi oshdi, qo'l mehnati kamaydi. "1953-yilga kelib, O'zbekistonda jami ekin maydonlarining 85 foizi MTSlar tomonidan mexanik tarzda ishlov berishga erishildi [16]. Biroq, bu yutuqlar ortidan tabiatga keltirilgan ekologik zararlar va ularning kelgusi avlodga salbiy ta'sirlarini inobatga olinmagan edi.

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 1946–1953-yillarda O'zbekiston SSR da MTSlar faoliyati mamlakat qishloq xo'jaligini tiklash va rivojlantirishda muhim o'rin tutgan bo'lsa-da, bu jarayon turli murakkabliklar va ziddiyatlar bilan kechgan. Urushdan keyingi iqtisodiy va ijtimoiy holat, mehnat resurslarining yetishmasligi hamda markazlashgan boshqaruv tizimining qattiq ma'muriylik MTSlar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Buni quyidagi xulosalarda ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, urushdan keyingi og‘ir iqtisodiy sharoitda MTSlar qishloq xo‘jaligini tiklashning asosiy vositasiga aylandi. 1946–1953-yillarda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi texnik jihatdan tiklanish jarayonida bo‘lib, MTSlar orqali yerlarni qayta o‘zlashtirish, paxtachilikni rivojlantirish va mehnat unumdorligini oshirish ishlari amalga oshirildi.

Ikkinchidan, MTSlar faoliyati qishloq xo‘jaligida mexanizatsiya jarayonini jadallashtirdi. 1946–1950-yillarda 1,2 million gektardan ortiq yer mexanik usulda haydaldi, bu esa ilgoriga nisbatan ikki barobar ko‘p natijani tashkil etdi. 1953-yilga kelib, umumiy ekin maydonlarining 85 foizi texnik jihatdan ishlangan.

Uchinchidan, MTSlar texnik ta‘minot va kadrlar yetishmasligi muammolari bilan to‘qnash keldi. Mexanizatorlar, muhandislar va ehtiyot qismlar tanqisligi, ayniqsa, Andijon, Namangan, Farg‘ona kabi hududlarda sezilarli bo‘ldi. Bu esa qishloq xo‘jaligi ishlarining kechikishi va texnik nosozliklarning ko‘payishiga sabab bo‘ldi.

To‘rtinchidan, paxtachilik davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. SSSR XKSning 1946-yilgi qaroriga asosan paxta yetishtirish hajmini ikki barobar oshirish belgilanib, butun agrar siyosat paxta majmuasi atrofida tashkil etildi. Shu bois, MTSlar faoliyati asosan paxtachilikka yo‘naltirildi.

Beshinchidan, texnikaviy rivojlanish bilan bir qatorda ma‘muriy va mafkuraviy nazorat kuchaydi. MTSlar bevosita SSSR Qishloq xo‘jaligi vazirligiga bo‘ysunishi natijasida Markaz texnik nazorat bilan birga iqtisodiy va mafkuraviy nazoratni ham kuchaytirdi. Bu esa kolxozlar mustaqilligiga chek qo‘ydi.

Oltinchidan, MTSlar faoliyati natijasida qishloq xo‘jaligida muayyan yutuqlarga erishildi, ammo samaradorlik cheklangan bo‘ldi. Paxta hosili 1940-yilga nisbatan 25–30 foizga oshgan bo‘lsa-da, mashinalar bilan terilgan paxta ulushi juda past – atigi 3 foizni tashkil etdi. Bu holat qishloq xo‘jaligidagi mehnatning hali ham asosan qo‘l mehnatiga tayanib kelganini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Ўзбекистон тарихи ССР тарихи. 4 томлик. IV том. – Тошкент: Фан, 1974, 493 б.
3. Usmonov Q, M.Sodiqov, S.Burxonova; O'zbekiston tarixi: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2016. –323 b.
4. Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. – Ташкент, 1967.
5. Турсунов С. 1946-1965 йилларда Ўзбекистон иқтисодиёти аграр соҳанинг ривожланиши: тарих фанлари докторлик диссертацияси. – Тошкент, 1995.
6. Раззаков А. Ўзбекистон пахтачилиги тарихи: ўтмиш ва ҳозир. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 223 б.
7. Аминова Х.Р. История совхозов Узбекистана 1917-1960 г.г. – Ташкент: Мехнат, 1989.
8. Қизил Ўзбекистон газетаси. 1947, февраль.
9. Народное хозяйство Узбекской ССР: Стат. сб.. 1956 году. — Ташкент: Госстатиздат. Узб. отд-ние, 1957.
10. Афана­са­ье­ва Т. Аграрная политика: соотношение таория и парктика. – Ташкент, 1990.
11. Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. Сборник статей материалов. – Ташкент: Узбекистан, 1975.
12. Қизил Ўзбекистон 1947, 7 май
13. СССР Қишлоқ хўжалиги статистика бюллетени. – Москва, 1951.
14. Ўзбекистон тарихи. Академик нашр. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
15. ЎЗМДА 90-фонд, 9-рўйхат, 92-варақ
16. Ўзбекистон ССР Давлат режа кўмитаси маълумотлари, 1954 йил ҳисобот